IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC FORMS OF SMALL BUSINESS IN DENSELY POPULATED AREAS

Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna
Senior Lecturer, Andijan State Technical Institute

Abstract

This article examines the issues of improving the organizational and economic forms of small business in densely populated areas. The study analyzes the organizational forms of small business entities operating in the cities and districts of Andijan region, their development features and existing problems. Based on a differential approach, priority areas for the development of small business were identified, based on the economic potential of the regions, resource capabilities and employment status. As a result of the study, scientific and practical proposals were developed on the organization of regional specialized small business zones, the development of cooperation and cluster relations, improving the knowledge and skills of entrepreneurs, expanding agroclusters and service cooperatives, as well as the introduction of new innovative organizational models. The implementation of these recommendations will ensure the efficiency, competitiveness and sustainable development of small business in densely populated areas.

Keywords

small business, private entrepreneurship, densely populated areas, organizational and economic forms, differential approach, cluster, cooperation, agrocluster, family business, individual entrepreneurship, LLC, regional development, digitalization, innovation model.

AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI TASHKILIY – IQTISODIY SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna
Andijon davlat texnika instituti, katta o‘qituvchi
nilufarbustonova39@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi zich joylashgan hududlarda kichik biznesning tashkiliy-iqtisodiy shakllarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda Andijon viloyati shaharlari va tumanlarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining tashkiliy shakllari, ularning rivojlanish xususiyatlari hamda mavjud muammolari tahlil qilingan. Differensial yondashuv asosida hududlarning iqtisodiy salohiyati, resurs imkoniyatlari va aholi bandligi holatidan kelib chiqib, kichik biznesni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Tadqiqot natijasida hududiy ixtisoslashgan kichik biznes zonalarini tashkil etish, kooperatsiya va klaster aloqalarini rivojlantirish, tadbirkorlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, agroklasterlar hamda servis kooperativlarini kengaytirish, shuningdek, yangi innovatsion tashkiliy modellarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur tavsiyalarning amalga oshirilishi aholi zich hududlarda kichik biznesning samaradorligi, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, aholi zich joylashgan hududlar, tashkiliy-iqtisodiy shakllar, differensial yondashuv, klaster, kooperatsiya, agroklaster, oilaviy korxona, yakka tartibdagi tadbirkorlik, MChJ, hududiy rivojlanish, raqamlashtirish, innovatsion model.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования организационно-экономических форм малого бизнеса в густонаселенных районах. Анализируются организационные формы субъектов малого бизнеса, действующих в городах и районах Андижанской области, особенности их развития и существующие проблемы. На основе дифференцированного подхода

определены приоритетные направления развития малого бизнеса, исходя из экономического потенциала регионов, ресурсных возможностей и состояния занятости. В результате исследования разработаны научно-практические предложения по организации региональных специализированных зон малого бизнеса, развитию кооперации и кластерных связей, повышению квалификации предпринимателей, расширению агрокластеров и сервисных кооперативов, а также внедрению новых инновационных организационных моделей. Реализация этих рекомендаций обеспечит эффективность, конкурентоспособность и устойчивое развитие малого бизнеса в густонаселенных районах.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, густонаселенные районы, организационно-экономические формы, дифференцированный подход, кластер, кооперация, агрокластер, семейный бизнес, индивидуальное предпринимательство, ООО, региональное развитие, цифровизация, инновационная модель.

Kirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o’sishini ta‘minlovchi asosiy bo’g’in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo’nalishi hisoblanadi. Respublikamizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqarorligini ta‘minlash va uni qo’llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo’nalishlaridan biri qilib belgilangan. Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi muhim roli shundan iboratki, uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta‘minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o’rinlarini tashkil etish, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining oshishini

ta‘minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xo’jalik faoliyatining shakli sifatida yuqori darajada universalligi, faoliyatning keng doirasi, ixchamligi va har qanday sharoitga tez moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jamiyatni barqarorlashtirish, iqtisodiy farovonlikni oshirishning kafolati desak mubolag’a bo’lmaydi.

Shu bois, har bir hududning iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, mavjud tashkiliy shakllarni takomillashtirish, yangi innovatsion modellarni joriy etish va kooperatsiyani kuchaytirishga asoslangan yondashuvlar zarur. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Andijon viloyatining shaharlari va tumanlarida kichik biznes subektlari asosan YTT, oilaviy korxona va MChj shaklida faoliyat yuritmoqda, biroq ularning samaradorligini oshirish uchun yuqorida aytib otganimizdek differensial yondashuv asosidagi tashkiliy-iqtisodiy islohotlar talab etiladi.

Tadqiqotimiz tahlil natijalari asosida aholi zich hududlarda kichik biznes tashkiliy-iqtisodiy shakllarni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni tavsiya etamiz:

Aholi zich joylashgan hududlarda kichik biznes subektlarini takomillashtirish uchun ularning tashkiliy shakllarini mahalliy sharoitga moslashtirish, raqamlashtirish, klasterlash va bilimlar bilan ta’minlash zarur. Yuqoridagi takliflar viloyat kesimidagi amaliy muammolar yechimi sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish kichik biznesning samaradorligi va barqarorligini ta’minlaydi.

Andijon viloyatida differensial yondashuv asosida kichik biznesni rivojlantirish – bu zamonaviy, ilmiy asoslangan va hududiy resurslarni maqbul boshqarishga xizmat qiluvchi strategik yondashuvdir. Ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ishonchli statistik tahlillar, mahalliy imkoniyatlarni chuqur o‘rganish, malakali kadrlar tayyorlash va hududiy infratuzilmani izchil yaxshilash zarur bo‘ladi.

Shu bois, har bir hududning iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, mavjud tashkiliy shakllarni takomillashtirish, yangi innovatsion modellarni joriy etish va kooperatsiyani kuchaytirishga asoslangan yondashuvlar zarur. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Andijon viloyatining shaharlari va tumanlarida kichik biznes subektlari asosan YTT, oilaviy korxona va MChj shaklida faoliyat yuritmoqda, biroq ularning samaradorligini oshirish uchun yuqorida aytib otganimizdek differensial yondashuv asosidagi tashkiliy-iqtisodiy islohotlar talab etiladi.

Tadqiqotimiz tahlil natijalari asosida aholi zich hududlarda kichik biznes tashkiliy-iqtisodiy shakllarni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni tavsiya etamiz:

- o‘rganilayotgan hududlarda hududiy ixtisoslashgan kichik biznes zonalarini tashkil etish zarur. Har bir tuman yoki shaharda mavjud resurslar va aholi malakasiga mos ravishda ixtisoslashgan kichik biznes zonalari (tikuvchilik, hunarmandchilik, qandolat, xizmat ko‘rsatish) tashkil etiladi. Chunki Asaka va Xonobodda bozor infratuzilmasi zaifligi kuzatilmoqda. Natijada kichik ishlab chiqaruvchilar uchun umumiy bino, jihoz va infratuzilmadan foydalanish imkoniyati, xarajatlar kamayadi;

-kichik ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash muhim hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy korxonalar o‘rtasida mahsulot ishlab chiqarish, marketing, sotuv va logistika jarayonlarini birlashtirish orqali klaster va kooperativ shakllar rivojlantiriladi. Ayni davrda mavjud shakllar (YTT va oilaviy) yakka tartibda sust harakatlanayotganligi kuzatildi. Ushbu jarayon natijasida resurslar birlashadi, marketing va eksport salohiyati ortadi, jamoaviy raqobat kuchayadi;

- tadbirkorlar uchun tizimli o‘quv dasturlarini joriy etish kerak.Bundan tashqari marketing, menejment, raqamli savdo, eksport va moliyaviy boshqaruv bo‘yicha qisqa muddatli bepul treninglar tashkil etish zarur hisoblanadi. Shahrixon va Xonobodda bilim

darajasining pastligi rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada, tadbirkorlarning boshqaruv salohiyati oshadi, iqtisodiy qarorlar sifatli qabul qilinadi.

- Agroklasterlar va servis kooperativlarini tashkil etish (qishloq joylari uchun) va rivojlantirish zarur. Tadqiqotda kuzatuv va tahli natijalariga kora, Shahrixon va boshqa tumanlarda eskirgan texnika va resurslar tarqoqligi mavjudligi kuzatildi. Fermer xo‘jaliklari, qayta ishlovchilar, saqlash va logistika xizmatlarini yagona agroklaster yoki servis kooperativi doirasida birlashtirish kerak. Natijada yalpi mahsulot hajmi oshadi, xarajatlar kamayadi, eksport salohiyati kuchayadi.

- yangi tashkiliy shakllarni eksperimental tarzda joriy etish taklif etiladi. Mavjud shakllar (YTT, MChj) ayrim ehtiyojlarga javob bermayotganligi sababli “Oila+mahalla+korxona” uchlik modeli, “mobil kichik ishlab chiqarish guruhlari” kabi yangi modellarni joriy qilish muhim hisoblanadi. Natijada moslashuvchan, innovatsion va barqaror kichik biznes shakllari shakllanishiga erishiladi.

Xulosa

Aholi zich joylashgan hududlarda kichik biznes subektlarini takomillashtirish uchun ularning tashkiliy shakllarini mahalliy sharoitga moslashtirish, raqamlashtirish, klasterlash va bilimlar bilan ta’minlash zarur. Yuqoridagi takliflar viloyat kesimidagi amaliy muammolar yechimi sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish kichik biznesning samaradorligi va barqarorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF–50-son Farmoni. “Kichik va o‘rta biznesni iqtisodiyotning drayveriga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF–101-son Farmoni. “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”.

3. Abdurahmonov Q.X. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

4. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Mintaqaviy iqtisodiyot va hududlarni rivojlantirish. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.

5. Rasulov A., Eshonqulov Q. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.

6. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving SMEs’ Access to Finance and Finding Innovative Solutions. Washington DC, 2023.